

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

FILOLOGIYA YO'NALISHI RUSIYZABON GURUHLARIDA O'ZBEK ADABIYOTI
FANINI O'QITISHDA ASAR TAHLILI MUAMMOLARI

Nargiza Musulmanova¹

Annotatsiya. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyotini o'qitishda badiiy asarlarning tahlili nihoyatda muhim. Chunki talabalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda asarlarning tahlili, xususan, pragmatik va lingvistik tahlili katta yordam berishi, shu bilan birga, ayrim badiiy asarlarning sotsiopragmatik tadqiqi talabalarning o'qilgan har bir asarga o'z munosabatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatik tadqiq, asar sujeti, makon va zamon muammolari, qahramonlarning pragmatik xususiyatlari, asar tili va uning jozibasi, asarda aks ettirilgan hodisalarning real yoki to'qimaligi, tarixiyli va zamonaviyiligi

Annotation. Analysis of works of art is extremely important when teaching Uzbek literature in Russian-speaking groups of the philological direction. Because in the formation of oral and written speech of students, the analysis of works, in particular, pragmatic and linguistic analysis, is of great help, while the sociopragmatic study of certain works of art shows the attitude of students to each work read.

Key words: sociopragmatic study, the plot of the work, the problems of space and time, the pragmatic characteristics of the characters, the language of the work and its charm, the realism or texture, historicity and modernity of the phenomena reflected in the work.

Inson tafakkuri, tili, madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishda so'z san'ati hisoblangan adabiyot fanining nechog'lik muhim ekanligi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Chunki, adabiyot insonni nafaqat odobga, balki fikrini ravon ifodalashga, so'z boyligini oshirishga, muloqot jarayonida undan ongli, oqilona va o'rinli foydalanishga ham o'rgatadi. Adabiyot – badiiy asarlar majmui bo'lib, uni o'qiguvchi o'z tasavvuri va dunyoqarashiga ko'ra qabul qiladi. Badiiy asarlarning sotsiopragmatik tadqiqi talabalarning o'qilgan har bir asarga o'z munosabatini ko'rsatadi. Xususan, asarda aks ettirilgan jarayonlar, qahramonlar, asar sujeti, makon va zamon muammolari, qahramonlarning pragmatik xususiyatlari, asar tili va uning jozibasi, asarda aks ettirilgan hodisalarning real

¹ Nargiza Musulmanova – *ToshDO'TAU O'zga tilli guruhlarida, o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti, f.f.n.*
Iqtibos uchun: Musulmanova, N. (2024) Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 21-24 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/VXAR3769

yoki to'qimaligi, tarixiyliigi va zamonaviyligi va hokazo jihatlarini tahlil qilishda talabalardan asarni to'liq o'qib tanishib chiqishlarini talab qiladi.

Bugungi kunda o'zbek tilini o'qitish davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan bir paytda, filologik yo'nalishdagi o'zga tilli guruhlarda o'zbek adabiyoti darslarini qiziqarli va samarali tashkil qilish talabi yuqori bo'lishi lozim. Talabalar dars jarayonida yoki mustaqil mutolaa qiladigan badiiy asarlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetishi, pragmatik tahlil qila olishi, yangi va notanish bo'lgan so'zlarni o'zlashtirib olishi va ular ishtirokida matnlar tuza olish ko'nikmasini shakllantirish o'qituvchining ham zimmasiga ko'proq mas'uliyatni yuklaydi. Chunki, o'qilayotgan badiiy asarlarning mazmuni, voqealar rivoji, qahramonlarning xatti-harakatlari, kommunikatsiyasi va boshqa jihatlar har doim ham o'quvchiga tushunarli bo'lmaydi. Badiiy asarlarning pragmatik tahlilida qahramonlar va personajlarning nutqi ijtimoy jihatdan, gender va yosh jihatidan, nutq momenti va situativ kombinatsiyasi jihatidan o'quvchilarga chiroyli va tushunarli tarzda yetkazilishi kerak. Tahlillar bilan birgalikda talabalardan ma'lum bir qahramonning rolga kirishi, uning nutqini ijro etishga harakat qilishi, shu bilan birgalikda ularni leksik va semantik jihatdan tahlil qilib berish ham mavzuni o'zlashtirishi uchun juda katta imkoniyatlar manbai bo'lishi mumkin.


V.M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent shahar filiali Filologiya fakultetida O'zbek tili va adabiyoti fanlari asosiy fanlar qatoriga kiritilgan bo'lib, 2-3-kurslar davomida o'qitiladi. O'zbek adabiyoti fani xalq og'zaki ijodidan boshlanib, adabiy janrlar, mumtoz adabiyot va uning vakillari asarlari, XX-asr va XXI-asr adabiyoti namoyandalarining nodir asarlari, shuningdek ayrim o'zbek shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini rus adabiyoti vakillarining hayoti va ijodi bilan taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra tahlil qilinadi. Darslarda o'rganiladigan badiiy asarlar, avvalambor, pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Ya'ni, asarning bosh g'oyasi, unda ishtirok etayotgan qahramonlar va personajlarning gender xususiyatlari hamda ularning nutqi, makon va zamon masalasi, voqealar rivojida tashqi va ichki omillarning ta'sir doirasi kabilar talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ayniqsa, asar ishtirokchilarining nutqi gender jihatdan tahlil qilinganda ularni tasavvur qilish yanada osonlashadi. Shu jihatdan, qahramonlar nutqini ularning vaziyati va psixologik holatidan tahlil qilinishi talablarga ancha oson bo'lib, ular bu tahlillarni jonli ijro, ya'ni qahramonlarning rolga kirib ham tahlil qilib bera oladilar.

Ayniqsa, kichik hikoyalarni shu tahlidda tahlil qilish darslarimiz samaradorligini ancha oshirdi. Abdulla Qahhor hikoyalaridan bir qanchasi dars davomida va mustaqil holda o'qib tahlil o'rganilganda, talabalar ularni tasavvur qila olishlari uchun har tomonlama pragmatik ochib berildi. Xususan, "Anor" hikoyasi avval o'qib chiqildi, notanish so'zlar tarjima qilindi, mazmun-mohiyati tushunib olindi va qahramonlar nutqi gender, psixologik, reallik, makon va zamon nuqtai nazaridan muhokama qilindi. Talabalar o'z fikr-mulohazalarini bildirishganlaridan so'ng, ushbu asarning videofilmi namoyish etildi. Shunda talabalar o'zlarining asar o'qigandagi tasavvurlarini mazkur videofilm orqali

ancha kengaytirishdi. Chunki videofilmlar asar o'quvchilarining tasavvurlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga ajoyib vosita hisoblanadi. Undagi milliy kolorit, musiqa va tasvir elementlari, personajlar nutqining real ifodasi, realiyalar, rekvizitlar, joy tasviri va boshqalar o'qilgan asarni yanada yorqinroq tasavvur qilishga va eslab qolishga yordam beradi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz", Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", G'ofur G'ulomning "Shum bola", Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'aloni", Erkin Vohidovning "Oltin devor", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" kabi yirik asarlarning videotasvirlari (yoki ularning parchalari) ham talabalarda so'z boyligini oshirishda, tafakkurini o'stirishda, voqealarni real tasavvur qilishda, ularni tahlil qilishda katta yordam beradi.

Shuningdek, badiiy asarlarni tahlil qilishda bir qancha metodlar ham samara berishi mumkin. Masalan, "Tafakkur xaritasi" (*Mayndmap*) metodi orqali asarlarni har taraflama o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.



Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani "Tafakkur xaritasi"

Mazkur xaritani talabalarga yanada kengroq to'ldirish topshirig'i beriladi. Bu orqali o'z-o'zidan asarning sotsiopragmatik tahlili ochiq namoyon bo'la oladi. Asarlardagi qahramonlarning ayol va erkak jinsiga, ijtimoiy tabaqaga, yoshga nisbatan xos bo'lgan nutq jarayoni vaqtidagi holati, nutq toni, mimika va ishoralari, kiym-liboslari, odatlari, o'ziga xos tutumlari kabilarni ham foto va videolavhalar orqali namoyish etish asarlarni to'la o'rganishga katta yordam beradi. Milliy koloritni o'ziga yaxshi singdirgan badiiy asarlar qaysidir jihatlari bilan bir-biriga o'xshasa, qaysidir jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Shu nuqtai nazardan, asar mualliflarining o'ziga xos bo'lgan so'z qo'llash mahorati, tasvir vositalari, troplardan foydalanish uslublari, asarlarda monologik va dialogik nutqlarning qo'llanilishi, muallif punktautsiyasi kabi har bir ijodkor uchun xos bo'lgan jihatlarni talabalarga asarlarni tanishtirishdan oldin uqtirib

o'tish asarlarni bir-biridan farqlagan holda tahlil qilishga ham katta yordam beradi.

Asar qahramonlarining milliy mentalitetni o'zida aks ettirishi uning nutqi, xatti-harakati, imo-ishorasi va, albatta, tashqi ko'rinishiga ko'p jihatdan bog'liq. Shunday ekan, asar qaysi millat vakili tomonidan yozilganligi yoki qaysi millat vakillari asarda bosh qahramon ekanligi ham juda ahamiyatlidir.

Talabalar asarlarni tahlil qilishganda ko'pincha Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va G'ofur G'ulomning "Shum bola" asarlarini misol qilib keltirishadi. Negaki, asar syujeti va qahramonlari ko'p jihatdan o'quvchining esida qoladigan qilib shakllantirilgan.



Ushbu suratda "O'tkan kunlar" asarining teatrdagi sahnalashtirilgan parchasi aks ettirilgan bo'lib, talabalardan uni milliylik nuqtai nazaridan izohlab berish topshirig'i beriladi. Bu kabi topshiriqlarni har bir asar bo'yicha talabalarga berib borish mumkin.

ADABIYOT:

Мусулманова Н. Р. Лингвопоэтика – тил ва адабиёт муштараклиги. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>

Nargiza Musulmanova. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. Vol. 2 (5) (2023) <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/80>

Кадирова Х. Б. ФОРМЫ ПОДАЧИ ИНФОРМАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ // Вестник науки и образования. 2023. №11 (142)-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formy-podachi-informatsii-v-obrazovanii-uzbekskomu-yazyku>

Кадирова, Х. (2024). ДВА РЕЖИМА ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ В ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Язык и культура Узбекистана*, 5(2). Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/82>.

MUNDARIJA:

1	Muhamedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulahimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112